

KUMUSH MA'DANLI KONLARIGA NISBATAN ZAXIRALAR TASNIFINI QO'LLASH BO'YICHA YO'RIQNOMA

- I. Umumiy qoidalar
- II. Konlarni geologik tuzilishning murakkabligi bo'yicha guruhlash
- III. Konlarning o'rganilganligiga oid talablar
- IV. Zaxiralarni hisoblashga qo'yiladigan talablar
- V. Konlarning o'rganilganlik darajasini baholash
- VI. Zaxiralarni qayta hisoblash va qayta tasdiqlash
- VII. Xulosa

Ilova. Qattiq foydali qazilmalar konlari geologik tuzilishi murakkabligining xarakterli ko'rsatkichlari.

Mazkur “Kumush ma'danli konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma” (keyingi o'rinlarda – “Yo'riqnoma”) kumush jinslar konlarining zaxiralarni o'rganish va hisoblashning asosiy talablari, ularning sanoat miqyosida o'zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

Yo'riqnoma Davlat geologiya qo'mitasi tomonidan 2003 yil 5 avgustda tasdiqlangan “Kumushli ma'dan konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma” o'rniga ishlab chiqilgan.

Yo'riqnomaga kumush ma'danli konlari, ularning zaxiralarini hisoblash bo'yicha geologik-qidiruv ishlari bo'yicha mahalliy va xorijiy amaliyotni inobatga olib hamda yangi “Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarning tasnifi”ga (26.09.2022 yildagi DZK 1185-son bayonnomasiga 4-son ilova) muvofiq o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan.

Mualliflar: Gleyzer L.M., Oxunov A.X., Raxmonova N.B.

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kumush - D.I. Mendeleyev davriy sistemasining 11-guruh elementidir. Tartib raqami 47, atom og'irligi 107,88. Ikkita barqaror izotoplardan tashkil topgan: Ag^{107} va Ag^{109} .

Kumush – oq rangli asl metallidir. Zichligi: 10,493-10,522; Erish harorati: 960,5°C; Qaynash harorati: 1955°C.

Kumush yuqori darajada harorat, elektr o'tkazuvchanlik va qaytaruvchanlik xususiyatlariga ega. Yumshoq, qovushqoq, egiluvchan va cho'ziluvchan metall hisoblanadi (kumushdan 0,00025 mm qalinlikdagi plastinalar, 1 gr metallardan esa

1800 m sim olish mumkin). Kimyoviy reaksiyalar va qotishmalar hosil qilishga nisbatan inert.

Kumush ko'pgina og'ir metallar bilan qotishma hosil qiladi. Simob kumush bilan birga amalgama hosil qiladi.

Birikmalarda kumush ko'pincha bir valentli bo'ladi. Oddiy sharoitda kislorod bilan birikmaydi, uni suyuqlangan holda eritadi va sovishi natijasida ajratib chiqaradi. Yuqori harorat va bosim ostida to'q qo'ng'ir rangdagi kumush oksidini hosil qiladi. Gidrooksid o'rtacha kuchdagi asos hisoblanganligini sababli, oltingugurt bilan yuqori haroratda oltingugurt vodorodi ta'sirida kumush sirtini qoplab oluvchi kumush sulfidini hosil qiladi. Qizdirilgan oltingugurt kislotasi boyitmasida va azot kislotasida eriydi, oddiy haroratda erkin galogenlar bilan o'zaro ta'sirlashadi. Kumush o'zining birikmalaridan osongina qayta hosil buladi. Mis, vanadiy, molibden, volfram, xrom, nikel, temir, kobaltlarda ma'lum darajada erish xususiyatiga ega.

Kumushni – kino- va fotosanoat, elektrotexnika va elektronikaning ko'plab jabhalarida keng qo'llaniladigan sanoat elementidir. Elektrotexnikada kumush eng yaxshi o'tkazuvchilardan biri bo'lib, simlar, uzgichlar, kontaktlar, saqlagichlar, simlarning ekranli qoplamasi, kavsharlash va payvandlash uchun kavsharlar, portativ batareykalar, quyosh panellari, avtomobil oynasining isitkichlarini ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Elektronikada kumush va kumushli qotishmalar bosma platalar, mikrosxemalar, membranali uzgichlar, tok o'tkazuvchi pasta va yelimlar ishlab chiqarishda ishlatiladi. Kumushning noyob nur qaytarish xususiyati uni oyna, plastik va metalldagi toshoyna qoplamasi sifatida ishlatishga yordam beradi. Kumushning salmoqli miqdori oshirilgan haroratda ishlaydigan mashinalar qismlarining galvanik qoplamasida ishlatiladi. Xususan, aviatsion reaktiv motorlarda faqat kumush qoplamali podshipniklar ishlatiladi. Kumushning galogenli birikmalari yorug'lik o'tkazish xususiyatini o'zgartiruvchi va quyosh spektrining binafsharang qismini to'suvchi fotoxrom oynaning tarkibiga kiradi. Kumushning katalitik xossalari va kimyoviy barqarorligi uning kimyo sanoatidagi o'rnini belgilab berdi (katalizatorlar tayyorlashda, ta'sirchan suyuqliklar saqlanadigan idishlar yasashda va x.k.).

Kumushning sanoatda qo'llanilish chegaralari kundan-kunga kengayib bormoqda. Bu bilan bir qatorda, kumush o'zining ikkinchi valyuta metali sifatidagi rolini saqlab kelmoqda va zargarlik sanoatida keng qo'llanilmoqda. Kumush buyumlari butun dunyoda talabgir hisoblanadi. Organizmga tushgan kumush ionlari foydali, hamda butunlay o'rganilmagan antibakterial ta'sir ko'rsatadi. Kumushni tibbiyotda va farmatsevtikada qo'llashning ulkan salohiyatlari ana shu omilga asoslangan. Bundan tashqari, kumushdan sanoat miqyosida foydalanishning ko'lamlari tobora kengayib bormoqda.

2. Kumush – yer qobig'ida kam tarqalgan element bo'lib, uning klarki 0,00001 foizni tashkil qiladi (A.P.Vinogradov Vinogradov bo'yicha).

Tabiatda 60 ta kumush va tarkibida kumush bo'lgan 6 ta asosiy guruhlariga bo'linuvchi minerallari mavjud. Kumushning sanoat uchun eng ahamiyatli minerallari 1-jadvalda ko'rsatilgan.

Kumushning asosiy sanoatbop minerallari

Mineral	Kimyoviy formulasi	Kumush miqdori	Zichligi, g/sm ³
I. Tarkibida kumush metall ko'rinishida uchraydigan minerallar			
Sof tug'ma kumush	Ag	80-100	10,1-11,1
Elektrum	Ag	25-75	12,5-15,6
Kyustelit	Ag	75-90	11,25-13,10
II. Oddiy sulfidlar			
Argenit (akantit)	Ag ₂ S	87,1	7,2-7,4
III. Oddiy sulfidlar (sulfotuzlar)			
Miargirit	AgSbS ₂	39,9	5,1-5,3
Pirargirit	Ag ₃ SbS ₃	59,76	5,77-5,86
Stefanit	Ag ₅ SbS ₄	68,3	6,5
Prusit	Ag ₃ AsS ₃	65,4	5,6
Polbazit	(AgCu) ₁₆ Sb ₂ S ₁₁	62,1-74,9	6,27-6,33
Matildit	AgBiS ₂	28,33	6,9
Shtomeyerit	CuAgS	53,0	6,3
Freybergit	AgCu ₁₂ Sb ₄ Si ₁₃	17,71	4,4-5,5
IV. Antimonitlar			
Diskrazit (intermetallid)	Ag ₃ Sb	72-84	9,8
V. Telluridlar va selenidlar			
Gessit	Ag ₂ Te	63,3	8,45
Nauamannit	Ag ₂ Se	73,5	7,9
Petstit	Ag ₃ AuTe	42,0	9,02
VI. Galloidlar va sulfatlar			
Kerargirit	AgCl	75,3	5,55
Embolit	Ag(Cl,Br)	65,2	5,4
Bromirit	AgBr	57,44	6,42
Yodirit	AgJ	45,95	5,7
Argentoyarozit	AgFe ₃ (SO ₄) ₂ [OH] ₆	18,9	3,6-3,8
VII. Kumush almalgamalari			
Arkverit	Ag,Hg (13% gacha)		
Kongsbergit	Ag,Hg (15% gacha)		
Bordozit	Ag,Hg (31% gacha)		

Ma'danlarning VII guruhi kumushning turli miqdordagi simob bilan hosil qilgan amalgamalarining turlari keltirilgan.

Eng ko'p uchraydigan mineral sof tug'ma bo'lib, 10% oltin, 6-7% mis, 1% temir va ba'zan surma, vismut va simobdan tarkib topgan.

Kelib chiqishiga ko'ra gipogen bo'lgan sof tug'ma kumush doirasimon, tomchisimon, va noto'g'ri shakllardagi ajralma holida piritda, arsenopiritda, galenitda va oqchil ma'danlarda, kvars agregatlarida to'ldiruvchi sifatida va o'simtalarida kalsit bilan birga uchraydi.

Gipergenez zonasida kumushli ma'danlarning osongina oksidlanishi natijasida galoidlar (kerargirit) va ikkilamchi sof-tug'ma kumush hosil bo'ladi; shu bilan birga ko'pincha oksidlanish zonalarining kumush bilan boyishi xam kuzatiladi. Sof tug'ma kumush bu yerda dendritlar, plastinkalar, sochsimon, tolasimon, qobiqsimon ko'rinishlarda xalkozin, tserussit, malaxit kabi minerallar bilan birga o'simtalar sifatida uchraydi.

3. Kumushning hamma sanoat konlari kelib chiqishiga ko'ra endogen hisoblanadi va ko'pincha murakkab tarkibli kompleks ma'danlardan tashkil topgan.

Kumush konlari tarkibida 50% dan ko'p solishtirma bahoga ega kumush bo'lgan kumushli va tarkibida kumush birga uchro'vchi sanoatbop komponent sifatida uchro'vchi tarkibida kumush bo'lgan turlarga bo'linadi.

Ma'danlashuvning masshtabiga ko'ra kumush konlari juda yirik (3 ming t. dan ortiq), yirik (2-3 ming t.), o'rtacha (1-2 ming.t.), mayda (0,3-1 ming.t.) konlarga bo'linadi.

4. Aynan kumush konlari beshta asosiy geologik-sanoat turdan iborat: polimetall-kumushli, oltin kumushli, arsenid-kumushli, kumush- porfirli, stratiform kumushli.

Ularni ichida eng ko'p tarqalgan polimetall – kumushli va oltin-kumushli turlaridir.

Polimetall-kumushli turi o'z ichiga ruh-qo'rg'oshin-kumushli va qo'rg'oshin-kumushli konlarni oladi. Konlar vulqonli mintaqalarga, tektonik-magmatik aktivlashgan zonalarga mansub bo'lib vulkanogen jinslar, andezit-datsit va riolit qatoridagi subvulkanik intruziyalar hamda vulkanogen jinslar bilan assotsiatsiyada bo'ladi. Asosiyroq vulkanogen komplekslar bilan ko'proq ruh-qo'rg'oshin-kumushli, ko'pincha misning miqdori yuqori bo'lgan (Sanshayn, AQSH; Serro-de Pasko, Tikampa-Ayxa, Peru), nordon-qo'rg'oshinli-kumushli (El Potosi, Delyop, Meksika) konlari bog'liq.

Markaziy Osiy hududida asosan O'rta Tyan-Shanning Qurama zonasidagi kechki paleozoyning (quyi perm) nordon vulkanizmi bilan bog'liq qo'rg'oshin-kumush turidagi konlar rivojlangan (Kandjal, Tariekan, Katta Konimansur, Tojikiston; Lashkerek O'zbekiston).

Konlar kechki orogen vulkanik-tektonik strukturalarda (kalderalarda) joylashadi. Bu strukturalar riolitli, riolit-datsitli komplekslar, yoki substratning tarkibi xar xil bo'lgan jinslaridan (effuziv, intruziv) tarkib topgan va tomirli, minerallashgan zonalar, shtokverklardan iborat. tomirli, minerallashgan zonalar va shtokverklar bilan ifodalangan Ma'danlar yaxlit, xol-xol, tomirsimon xol-xol bo'lib

tarkibi kvars-karbonat- sulfidli. Sulfidlarda galenit ko‘proq bo‘lib, sfalerit, xalkopirit, xira ma‘danlar kamroq uchraydi. Kumushning eng ko‘p tarqalgan minerallari: sof tug‘ma kumush, akantit (argentit), shuningdek sulfatuzlar (Freybergit, polibazit, pirargirit, Stefanit va B.). Chuqurlik ortib borishi bilan mis, vismut, oltinlarning miqdorlari ortib borishi kuzatiladi.

Ma‘danlarda kumushning miqdori odatda 200-500 g/t atrofida, xol-xol, tomirsimon xol-xol ma‘danli yirik shtokverkli konlarda 50-100 g/t atrofida (Katta Konimansur).

Oltin-kumushli turi. O‘zbekistonning kumushli ma‘dan konlarining ichida paleozoyning terrigen va karbonatli-terrigen yotqiziqlaridagi oltin- kumushli konlari asosiy ro‘l o‘ynaydi (Markaziy Qizilqum). Ular uzilmali buzilmalar va ularni kesishmalari bilan nazorat qilinuvchi tomirli - mayda tomirsimon zonalaridan iborat. Mineral turlariga ko‘ra oltin-kumush-sulfatuzli (Visokovoltnoye, Djasaul), oltin-kumush-sulfidli (Kosmonachi, Kumushsoy) va kumush-polisulfid-sulfotuzli (Okjetpes) konlar ajratiladi. Birinchi ikki turdagi konlar terrigen jinslarda (qumtoshlar, alevrolitlar, argillitlar), uchinchisi esa karbonatlarni terrigen jinslar bilan kontaktida yotadi.

Oltin-kumush-sulfotuzli turdagi konlarning ma‘danlari kvars, karbonat, kam miqdordagi (3,5-5% gacha) sulfidlardan (ko‘proq pirit, arsenopirit, antimonit) tashkil topgan. Kumushning minerallari akantit, kumush sulfotuzlari (polibazit, Stefanit, pirargirit va B.) gesit, Naumannit, ozroq sof tug‘ma kumushdan tashkil topgan. Oltin sulfidlar, kumush minerallarida shuningdek sof tug‘ma holda xam uchraydi. Kumushning miqdori 200-400 g/t, o‘rtacha 45-50 g/t, oltinniki – 1,0 g/t. Ma‘dan jismlari tik, qalinligi 1,0-4,0 m, yo‘nalishi bo‘yicha uzunligi 80-500 m, yotishi bo‘yicha – 600 m gacha.

Oltin-kumush-sulfid turidagi konlar uchun kumushning sof-tug‘ma kumush bilan, tarkibida kumush bo‘lgan tetraedrit bilan, kamroq hollarda akantit va sulfotuzlar (Freybergit, polibazit va boshqalar.) bog‘liqligi xarakterlidir. Ma‘danlarda sheyelit, pirit, arsenopirit, sfalerit, galenit, antimonit uchraydi. Kumushning miqdori 50-400 g/t, o‘rtacha 100-50 g/t, oltinniki-1,0 g/t. Ma‘dan jismlari asosan qiya yotadi. Qalinligi 4-5 dan 30 m gacha, yo‘nalishi bo‘yicha uzunligi 180-500 m, yotishi bo‘yicha 950 m.

Kumush-polisulfid-sulfotuzli turdagi ma‘dan jismlarida kumushning asosiy mineral konsentratorlari galenit va tetraedrit. Kumushning minerallaridan ko‘proq akantit va polibazit uchraydi. Ma‘danlar kam margimushli, asosan pirit kamroq ruh va qo‘rg‘oshin sulfidlari rivojlangan. Kumushning miqdori 120-280 g/t, o‘rtacha – 135 g/t. Oltin – 0,1-0,2 g/t. Ma‘dan jismlari tik, qalinligi 10-20 m, yo‘nalishi bo‘yicha uzunligi 200-1250 m, yotishi bo‘yicha – 150 m.

Oltin-kumushli turdagi konlarda vulkanogen konlar muhim rol o‘ynaydi. Bunday vulkanogen kumush konlari (Ag: Au nisbati – 100 dan ortiq) asosan yosh mezo-kaynozoy vulqon mintaqalariga xos (Amerika - Tinch okeani, Oxotsk - Chukotka mintaqalari). Ular riolit yoki andezit-datsit-riolitli jins komplekslaridan tashkil topgan (Guanoxuato, Pachuka, Meksika; Dukatskoye, Rossiya) vulqon hosilalari bilan bog‘liq.

Konlar minerallashgan va tomirsimon zonalar va shtokverklardan iborat. Ma'danlar ko'proq kvars-adulyar tarkibga ega bo'lib, ularda sof tug'ma kumush, akantit, kumush sulfotuzlari, sof tug'ma oltin uchraydi. Chuqurlik ortishi bilan qo'rg'oshin va ruh sulfidlari ortib boradi. Ma'danlarda kumushning miqdori 200-500 g/t va undan ortiq.

O'zbekiston hududida oltin-kumushli turga o'tuvchi kichik konlar ma'lum (Chotkol rayonidagi Revashte ma'danli maydoni). Bu yerda ma'danlar andezit-datsit, datsit, liparit-datsitlardan tuzilgan yuqori paleozoyning vulqonli depressiyasi bilan bog'liq. Kvarsli tomirlarda, tomirli va metasomatik kvarstlanish zonalarida uchraydi. Ma'danlar odatda kamsulfidli, tarkibida sof-tug'ma oltin, kumush sulfotuzlari va kumushli xira ma'danlardan iborat. Kumushning miqdori 200-400 g/t va undan ortiq Ag, Au nisbati 60:1 atrofida, biroq asosiy sanoat uchun qimmatbaho bo'lib oltin xizmat qiladi.

Arsenid-kumushli tur besh elementli formatsiyaga (Co-Ni-Bi V-Ag) mansub. Asosan sof tug'ma holda uchro'vchi kumushning Fe, Ni, So arsenidlari bilan assotsiatsiyada bo'lganlari ushbu tur uchun xos. Bu turdagi konlar kam tarqalgan bo'lishlariga qaramay kumushning birnecha o'nlab kg/t ga yetuvchi konsentratsiyali zaxiralari bilan ajralib turadi (Kobalt, Bolsho'ye Medvejye o'zero, Kanada: Yaximov, Shneyeberg va b., Rudniye gori Chexiya va Germaniya). O'zbekistonda ularning tipik namoyondalari bu Oqtosh konidir (Qurama tog'lari), ular yuqori paleozoyning siyenitlari va subishqorli bazitli daykalari tomonidan yorib o'tilgan gabbro-montsonitli massivda joylashgan. O'zaro yaqinlashgan qalinligi 1-2 dan 30 sm gacha, ba'zi yerlarida 1 m gacha bo'lgan, uzunligi bir necha o'ndan, yuzlab metr gacha bo'lgan tomirli zonalar seriyasidan iborat. Kumushning ma'dandagi asosiy massasi sof tug'ma kumush bilan, kamroq hollarda esa akantit va kumushning sulfotuzlari bilan bog'liq. Xar hil nisbatlarda Ni, So, Fe arsenidlari, sof tug'ma vismut, vismutin, uran oksidlari va silikatlari, tomirli minerallardan karbonat, kamroq kvars va xlorit uchraydi. Kumush miqdori 0,5 dan 30 kg g/t, o'rtacha 1,9 kg/t. Arsenid - kumushli ma'danlar asosan gabbroning melonokratli xillarida ma'danlashadi. Siyenitli tomirlarning siyenitli-monotsitlar bilan kesishgan yerlarida vismut va uranning miqdori ortadi.

Kumush porfirli va stratiformli-kumushli konlar faqat keyingi yillarda sanoat ahamiyatiga ega bo'ldi. Ular zaxiralari bo'yicha yirik bo'lsa xam kumushning miqdori 65-75 g/t li oz miqdorli konlardan iborat.

Kumush porfirli konlar riolitlardan tashkil topgan kalderalarda uchraydi (Delamar, Uoterlu. AQSH). Ma'danli shtokverklar riolitlarning g'ilofi va bo'g'izlarida ko'proq uchraydi. Bu yerda asosiy ma'danli mineral- kvars tomirlarida va kremniylashgan riolitlarda xol-xolliklar hosil qiluvchi naumannitlardir.

Bundan tashqari akantit, sof tug'ma kumush, tarkibida selen bo'lgan kumushning sulfotuzlari, sof tug'ma oltin (1 g/t gacha).

Stratiformln kumush konlari vulqon markazlari yaqinidagi (Real- de Anxeles, Meksika) terrigen yotqiziqlarida yoki vulkanogen - cho'kindi jinslar riolitlaridagi (Delamar va b. AQSH) xol-xol ma'danlardan iborat. Ma'danlar xol-xol, tomirli xol-xol freybergit akantit, stefanit, kumushli galenit, xalkozinlar bilan. Boshqa

minerallardan pirrotin, sfalerit bor. Ma'danlarning termal manbalar bilan bog'liqligi taxmin qilinadi.

Kumush porfirli va stratiformli - kumushli turlaridagi konlar O'zbekistonda aniqlanmagan. Kumush - porfirli turga yaqini Tojikistondagi Katta Konimansur koni hisoblanadi.

5. Faqat kumushdan iborat konlarning borligiga qaramay, butun dunyoda kumush qazib olishda tarkibida kumush bo'lgan kompleks konlar yetakchi rol o'ynaydilar: oltin ma'danli, polimetall, mis porfirli, qalayli misli qumtoshlar va b.

O'zbekistonda kumushning bunday muhim manbalaridan kumush-oltin ma'danli konlar (Ko'chbuloq Qizilolmasoy, Chodoq, Guzaksoy, Marjonbuloq va b. ma'danlarida kumush miqdori 30-50 g/t), mis porfirli (Qalmoqkir, Sarichekukumush miqdori 2,5-3 g/t) mavjud. Granitoidlarning karbonatli terrigen kontaktlaridagi kolchedanli-polimetall konlari (Xandiza, Janubiy O'zbekiston - ma'danlarda kumushning miqdori 50-150 g/t) va qalayi konlari, quyi perm kvarsporfirlariping subvulqonli intruzivlari bilan bog'liq skarn -polimetalli konlari (Kumushkon, Sharkiy O'zbekiston, Ag-100 g/t dan ko'proq) kumush bilan boyigan. Quyi perm liparidlari bilan bog'liq tarkibida kumush bo'lgan qalay namoyonlari (Shimoliy Shavaz va b., G'arbiy O'zbekiston), mansfeld turidagi misli qumtoshlar (Bobotog', Janubiy O'zbekiston) mavjud.

6. Kumush boyitmasini olish uchun ma'danlarga qayta ishlov berish texnologiyasi - kumushli ma'danning mineral tarkibiga, oksidlanish darajasiga, komplekslashganligiga, tekstura va strukturasiga, donalarining katta-kichikligiga, minerallarning bir-biri bilan qo'shib o'simtalar hosil qilish darajasiga, ma'danlarning maydalash jarayoniga qarshiligiga, shlam hosil qilish darajasiga, ma'dan tarkibida zararli qo'shimchalarning miqdoriga chambarchas bog'likdir.

Yuqori darajadagi zichlikka ega bo'lgan minerallarni ajratib olishda (sof tug'ma kumush, uning tabiiy qotishmalari, oddiy sulfidlar telluridlar, selenidlar va yengil komponentlar bilan qattiq bog'lanmagan boshqa minerallar) gravitatsion boyitish usuli muhim ahamiyat kasb etadi.

Kumushning ko'pgina minerallari (oddiy va murakkab sulfidlar, telluridlar, sof tug'ma kumush) yuqori darajada flotatsiyalanish xususiyatiga ega.

Kumush ajratib olishning samarali usuli-tsianidlashdir. Metall turdagi kumush, sulfatlar va galloidlar juda yengil tsianidlanadi. Kumushning oddiy sulfidlari esa qiyinroq tsianidlanadi. Tarkibida margimushli, surmali birikmalar va kumushning telluridlari hamda tarkibida mayda zarrachali kumush bo'lgan silikatli ma'danlar gidrometallurgianing maxsus usullarini, ishlov berishning biriktirilgan texnologik sxemalarini yoki dastlabki materialni juda yuqori darajada maydalashni talab etuvchi turkumiga kiradi.

Minerallarning anchagina guruhi eritishning puxta tuzilgan rejimida xam bevosita tsianidlash jarayoniga qiyin bo'ysunadi va kumush ajratib olish materialni kuydirish, so'ngra kuyindini tsianidlashni o'z ichiga oluvchi pirogidrometallurgiya sxemalari yordamida amalga oshiriladi.

Kumush ma'danlarining hamma sanoat turlari uyg'unlashgan bo'lib, oltin - kumushli, surma-kumushli va boshqa xillarga ajratiladi.

Ko'p komponentli (uchta va undan ortiq) ma'danlarga ishlov berish asosan ba'zi paytlarda gidrometallurgiya usuli bilan to'ldirilgan selektiv flotatsiya jarayoni yordamida olib boriladi. Flotatsiya - har bir foydali komponentga konditsiya darajasida bo'lgan va shu joyning o'zida yoki maxsuslashtirilgan metallurgiya zavodlarida qayta ishlanadigan selektiv boyitmalarning olinishini ta'minlab berishi zarurdir.

Bir paytning o'zida tarkibida ham oltin, ham kumush bo'lgan ma'danlarga yalpi ravishda ishlov berish sxemasi texnologiya jihatdan eng "qaysar" va qiyin ishlanuvchan komponent bo'lgan kumushning maksimal yuqori darajada ajratib olinishini ta'minlab beruvchi rejimlar jarayonlarga asoslanishi shartdir.

Texnologiya jihatidan qiyin ishlanuvchan ma'danlar sirasiga bevosita tsianidlash jarayoni yordamida ajratish mumkin bo'lmagan mayda dispersiya kumush ma'danlari kiradi.

Oksidlanish darajasiga ko'ra (odatda oksidli temirning uning sulfidli va oksidlangan shaklidagi miqdoriga nisbati orqali aniqlanadi) ma'danlar sulfidli (birlamchi, 10% gacha), aralash (qisman oksidlangan, 10- 80%), va oksidlangan (80% dan ortiq) bo'ladi.

Hozirgi paytda sanoatda metall ko'rinishdagi kumush bilan assotsiatsiyada bo'lgan oddiy va murakkab sulfidlar, telluridlar va selenidlar sifatidagi sulfidli ma'danlar katta ahamiyatga egadir. Oksidlanish zonasidagi ma'danlarda va asosan uning yuqori qismlarida temir va marganes oksidlari bilan bir qatorda kerargirit va kumush sulfatlari keng tarqalgandir. Bunday ma'danlarga ko'p hollarda to'g'ridan-to'g'ri tsianidlash yo'li bilan ishlov beriladi.

Sulfidli boyitmalardan kumush biooksidlashdan so'ng tsianidlash yo'li bilan yoki oksidlovchi kuydirish va pirometallurgiya yordamida ajratib olinadi.

Bioksidlash bir vaqtning o'zida sulfidlarni bakterial yo'l bilan buzadi (oksidlaydi) va margimushni skorodit, pittitsit (temir arsenati) singari qiyin eriydigan xiliga aylantiradi. Bioksidlash natijasida ochilgan kumushni tsianidli aralashma yordamida ajratib olish mumkin.

6.1. Kumush-polimetall-kvars turidagi ma'danlar tarkibining yalpiligi va foydali komponentlar miqdorining nisbatan pastligi sababli asosan flotatsiya usuli bilan boyitiladi. Flotatsiyaga jo'natilayotgan ma'danlar tarkibidagi qo'rg'oshin va ruh miqdorini oshirish maqsadida ba'zi paytlarda oldindan og'ir suspenziyalar yordamida gravitatsiya usuli bilan boyitiladi, natijada 30-40% befoyda jinslar kam miqdordagi qo'rg'oshin, ruh va mis bilan birgalikda yengil fraksiya sifatida ajratib tashlanadi. Bu esa kam miqdordagi metallga ega bo'lgan ma'danlarning sanoatga jalb etilishini ta'minlaydi. Qo'rg'oshin - ruhli ma'danlarni flotatsiya qilishda quyidagi sxemalar qo'llaniladi: jamlab flotatsiya qilish yo'li bilan jamlangan boyitmalarni selektsiyalash; jamlangan-selektiv sxema; ketma-ket selektiv flotatsiya. Kumush asosan qo'rg'oshin va ruh boyitmalarida to'planadi va bulardan u navbatdagi metallurgiya ishlovi yordamida ajratib olinadi.

Qo'rg'oshin va ruh boyitmalari sifatiga qo'yiladigan talablar qo'rg'oshin va ruhli ma'dan konlariga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnomada batafsil yoritilgan.

Qo'rg'oshin boyitmalarini qayta ishlashdagi asosiy usul – bu aglomeratsiya qilingan boyitmalarni shaxtali pechlarda rostdash uchun eritishdan iboratdir.

Rux boyitmalariga 2 ta usul, ya'ni pirometallurgik (distilyatsion) va gidrometallurgik (elektrolitik) usul yordamida ishlov beriladi.

Jamlangan polimetall boyitmalariga ishlov berish bugungi kunda elektr pechlarida muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilmoqda.

Metallurgiya korxonalarida xom ashyoni yalpi ravishda qayta ishlash jarayonida qo'rg'oshin va ruh ishlab chiqarish mahsulotlaridagi oltin va kumush boyitmalari ma'dandagiga nisbatan oshadi va shu bilan mos ravishda klinkerda 7 va 6 marotaba, shlinkerda 50 va 30 marotaba, kumush ko'pigida 1400 va 1100 marotaba, shpeyzda 180 va 22 marotaba oshadi.

6.2. Moddiy tarkibining xilma-xilligi va ular tarkibidagi oltin va kumushning alohida xususiyatlari bilan izohlanadigan oltin-kumush xom ashyosining turli-tuman xossalari tufayli oltin-kumush-kvars turidagi ma'danlarni qayta ishlashning texnologik sxemalari ko'p hollarda uni boyitish, piro- va gidrometallurgiya, biooksidlash uslublarining kombinatsiyalaridan iborat bo'ladi.

Tarkibida oltin-kumushi bo'lgan ma'danlarni qayta ishlashda qo'llaniladigan asosiy jarayonlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: ma'danni saralash, bo'laklash, maydalash, shlamsizlantirish va x.k.; gravitatsiya va flotatsiya (jamlangan va selektiv) usuli bilan boyitish, tsianidlash (filtrlash va sorbsiyalash texnologiyalari bo'yicha) yoki ma'dan va boyitmalarga pirometallurgiya ishlovini berish (kuydirish, eritish). Oltin-kumushli boyitmalar tarkibidagi kumushni ajratib olish affinaj zavodlarida amalga oshiriladi. So'ngi vaqtlarda texnologiya jarayonlarining quyidagi yangi va samarali usullari rivoj topmoqda: radiatsion saralash, ko'pikli separatsiya, tiokarbamidlash va bakterial yo'l bilan eritish, xlorid bilan haydash. Foydali komponentlari miqdori kam bo'lgan ma'danlar uchun uyumlab eritish usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

6.3. Kumush-arsenidli ma'danlarni qayta ishlash texnologiyasi ularning mineralogik tarkibi, oksidlanish darajasi, yalpiligi, tekstura va strukturasi, donalarining katta-kichikligi, va boshqa ko'pgina ko'rsatkichlariga bog'liq.

Ma'danlarning sanoatda ahamiyatli bo'lgan asosiy minerallari qatoriga softug'ma kumush, akantit, pirargirit, prustit, kerargirit minerallari kiradi. Softug'ma kumush ko'pinchalik noto'g'ri shakllarda bo'lib, o'lchamlari 0,01dan 1mm gacha yetadi.

Kumush-arsenidli ma'danlarni boyitish gravitatsion-flotatsiya sxemalari bilan birgalikda amalga oshiriladigan flotatsiya chiqitlarini tsianidlash yo'li bilan amalga oshiriladi, bunda jamlangan graviflotoboyitma tarkibiga 99% kumush ajralib chiqadi. Olingan gravi- va flotoboyitmalar qo'yiladigan normalarga javob berishi shart. Bunday boyitmalarga nisbatan yagona qat'iy normalar qo'yilmagan bo'lib, ular metallurgiya korxonasining faoliyat rentabelligini ta'minlab berishi shartdir.

Boyitish mahsulotlariga navbatdagi ishlov berish jarayonlari metallurgiya zavodlarida asosan tsianidlash, so'ngra elektroliz eritmalarida kumushni tindirish va cho'ktirib olish yo'li bilan olib boriladi.

II. KONLARNI GEOLOGIK TUZILISHNING MURAKKABLIGI BO'YICHA GURUHLASH

7. Ma'dan jismlarining o'lchami va shakli, quvvatining o'zgaruvchanligi, ichki tuzilishi va kumushning tarqalish xususiyatlari bo'yicha kumush konlari "Qattiq foydali qazilmalar zaxiralari va bashoratli resurslarning tasnifi"ning (26.09.2022 yildagi DZK 1185-son bayonnomasiga 4-ilova) 2-, 3- va 4-murakkablik guruhlariga to'g'ri keladi.

2-guruhga qalinligi va foydali qazilma ma'dan tanasining ichki tuzilishi murakkab geologik tuzilish bilan xarakterlanadigan konlar (maydonlar) kiradi. Bunday konlardagi ma'dan tanalari yirik va o'rtacha o'lchamli linzasimon va cho'zilib ketgan qatlamsimon yotqiziqlardan (yo'nalishi bo'yicha 1-3 km og'ishi bo'yicha bir necha yuz metr), yirik minerallashgan va tomirlashgan zonalaridan (1 km. dan ortiqqa cho'zilgan va qalinligi bo'yicha 1-2 dan 70-80 m.) yoki shtokverklardan, hamda ancha qalin bo'lgan tomirlardan tashkil topgan. Ma'danlashish notekis tarqalgan (chiziqli yo'nalishi bo'yicha zaxiralarning o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti 40-100% atrofida) (Visokovoltnoye).

3-Guruhga qalinliklari keskin o'zgaruvchan va asosiy foydali komponentlarni nihoyatda notekis tarqaladigan (chiziqli yo'nalish bo'yicha zaxiralarning o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti 100-180% atrofida) o'rtacha (bir necha yuz metrdan ming metrgacha cho'zilgan) va yirik o'lchamli minerallashgan va tomirlashgan zonalar, linzasimon va qatlamsimon yotqiziqlar (yo'nalishi va og'ishi bo'yicha bir necha yuz metr, qalinligi esa 1-2 metr), murakkab tuzilishdagi tomirlar (o'zgaruvchan qalinliklarga ega - bir necha sm. dan 3 m gacha) va murakkab tuzilishdagi yirik bo'lmagan trubasimon, linzasimon, yotqiziqlardan iborat bo'lgan konlar kiradi - Kosmanachi, Okjetpes, Lashkerek.

4-guruhga o'lchamlari mayda bo'lgan (bir necha o'n metrgacha cho'zilgan) yakka yoki bir-biriga yaqin joylashgan va juda kam qalinlikka ega bo'lgan (0.03-0.4 m gacha) tomirlar, linzalar, minerallashgan zonalar, keskin o'zgaruvchan qalinlikka ega bo'lgan yoki yotishi bo'yicha buzilgan yotqiziqlar va ma'dan to'plamlari uyasimon, favqulodda uziq-yuluq taqsimlangan ma'dan tanalaridan iborat konlar kiradi (Oqtepa).

8. Konlarning u yoki bu guruhga mansubligi, foydali qazilmalar jismlarining geologik tuzilishi murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda, ularda kon zaxiralari ko'pligini e'tiborga olib belgilanadi (70 foizdan kam bo'lmaganda).

III. KONLARNING O'RGANILGANLIGIGA OID TALABLAR

9. Konlarni eng yuqori samara bilan o'rganish uchun geologiya-qidiruv ishlarining belgilangan bosqichlariga rioya qilish, ularning to'liqligi va sifatiga qo'yiladigan talablarni bajarish, qidiruv usullari va texnik vositalarni oqilona uyg'unlashuvini ta'minlash hamda tadqiqot natijalarini bosqichma-bosqich geologik va iqtisodiy baholash zarur.

10. Kumushning batafsil izlash ishlari natijasida aniqlangan istiqbolli namoyonlarida (potensial konlarda) ularning tijoriy ahamiyatini asoslash uchun yetarli hajmlarda baholash ishlari amalga oshiriladi. Qidiruv ishlari sanoat ahamiyati faqat texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar bilan asoslangan konlarda olib boriladi.

11. Konni baholash va qidiruv ishlari natijalariga ko'ra, kumush ma'danlari va metall, yo'ldosh foydali qazilmalar va sanoat ahamiyatiga ega foydali komponentlarning geologik va ekspluatatsion zaxiralari belgilangan tartibda hisoblab chiqiladi va "Qattiq foydali qazilmalarning zaxiralari va bashoratli resurslarning tasnifi"ning I, III va V boblariga muvofiq tasdiqlanadi. Hisoblash natijalarining konturi ortida P_1 toifadagi bashoratli resurslar baholanadi.

12. Kon bo'yicha masshtabi obyektning o'lchamiga, geologik tuzilishining xususiyatlariga va relyefiga mos keladigan topografik asos tuzilishi lozim. Kumush konlarining topografik xaritalari va rejalari odatda 1:1000-1:5000 masshtabda tuziladi. Barcha qidiruv va qazib olish inshootlari (kanavalar, shurflar, shto'lniyalar, quduqlar), batafsil geofizik kuzatuv profillari hamda ma'dan tanalari va minerallashgan zonalarining tabiiy namoyonlari instrumental bog'langan bo'lishi kerak. Yer osti tog' inshootlari va quduqlari rejalarga marksheyderlik syomkasi ma'lumotlari asosida kiritiladi. Tog'-kon ishlari gorizontlarining marksheyderlik rejalari odatda 1:200 masshtabda, jamlanma rejalar esa 1:1000 miqyosdan kam bo'lmagan masshtabda tuziladi. Quduqlar uchun, ularning ma'dan tanasining usti va ostki bilan kesishish nuqtalarining koordinatalari hisoblanishi hamda ularning stvollarini ilovasi qurilishi reja va kesimlar yuzasida amalga oshirilishi kerak.

13. Konning geologik tuzilishi har tomonlama o'rganilishi va geologik xaritada 1:1000-1:5000 masshtabda (konning kattaligi va murakkabligiga qarab), geologik kesmalar, rejalar, 1:500-1:1000 masshtabli proyeksiyalar, hajmli modellar, zarur hollarda esa – ma'dan tanasining tub (ustki) qatlamining strukturaviy rejalari, izomikdorlar rejalari, izometrogrammalarida aks ettirilishi lozim. Konning geologik va geofizik materiallari ma'dan tanasining kattaligi va shakli, ularning yotish sharoiti, ichki tuzilishi va uzluksizligi, ma'dan tanasining nuraganligi, ulardagi kumush tarqalishi, qamrov jinslarning o'zgaruvchanlik xususiyatlari va ma'dan jinslarining qamrov jinslar, burmali tuzilmalar va tektonik buzilishlar bilan geologik zaxiralarni hisoblashni asoslash uchun zarur va yetarli darajada bog'liqligi haqida tushuncha bera olishi kerak. Shuningdek, konning geologik chegaralarini va bashoratli resurslarining P_1 toifasini baholanadigan istiqbolli hududlarning joylashishini aniqlaydigan qidiruv mezonlarini asoslash lozim.

14. Kon joylashgan rayon bo'yicha miqyosli xaritalar yo'riqnomasi talablariga javob beruvchi 1:25 000-1:50 000 miqyosdagi kesim va tegishli qirgimlari ko'rsatilgan geologik xarita va foydali qazilmalar xartasiga, hamda rayondagi foydali qazilma resurslarini majmuaviy baholashga imkon beruvchi chizma materiallariga ega bo'lish zarur. Ko'rsatilgan materiallar kumush ma'danini nazorat qiluvchi strukturalar va jinslar, kumush konlarining ma'dan qamrovchi

komplekslari va foydali qazilmaning bashorat resurslari baholangan istiqbolli maydonlar joylashuvini aks ettirishi lozim.

Hududda olib borilgan geofizik tadqiqotlarning natijalarini geologik xaritalar va ularning qirqimlarini tuzishda qo'llash va taqdim qilingan xaritalarning masshtabidagi geofizik noodatiyliklar talqini jamlanma rejalarda aks ettirilishi zarur.

15. Ma'dan tanalari yoki minerallashuv zonalarining chiqishlari va yer yuzasiga yaqin qismlari geofizik va geokimyoviy usullarni qo'llash orqali tog' inshootlari (kanavalar, shurflar) va mayda quduqlar yordamida o'rganilishi va ma'dan tanalari morfologiyasi va yotish sharoitlarini, oksidlanish zonolari o'zlashtirishi va tuzilishi, uning kumush bilan ehtimolli boyitish darajasini, moddiy tarkib va texnologik xususiyatlarning o'zgarish xususiyatlarini aniqlash imkonini beruvchi batafsillik bilan namunalanishi lozim.

16. Konning chuqurligini baholash odatda quduqlar qidiruv-quduqlari hamda konning geologik tuzilishi o'ta murakkabligida tog' inshootlari va quduqlarning yerdan turib geofizik tadqiqot ishlari bilan amalga oshiriladi.

Qidirish uslubi ya'ni tog' ishlari va burg'ilash ishlari hajmlarining nisbati, tog' inshootlari turlari va burg'ilash usullari, qidiruv to'ring geometriyasi va zichligi, namunalash usullari va yo'llari geologik tuzilish murakkabligi guruhiga mos kategoriyalar bo'yicha kondagi geologik zaxirani hisoblab chiqish imkonini ta'minlashi zarur. U ma'dan tanasining geologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qidiruvning tog'-kon, burg'ilash va geofizik vositalari, shunga o'xshash turdagi konni qidirish va o'zlashtirish tajribasidan kelib chiqib aniqlanadi.

Qidiruvning maqbul variantini tanlashda kumush miqdorining o'zgaruvchanligi darajasi va uning fazoviy taqsimoti xarakteri, ma'daning teksturaviy-strukturaviy xususiyatlari hamda burg'ilash davomida kernning yedirilishi ehtimoli va tog' inshootlarida namunalashda kumush va ma'dansiz minerallarning rangga kirishini inobatga olish lozim. Shuningdek, qidiruvning turli variantlari bo'yicha ishlarning qiyosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari va bajarish muddatlarini ham e'tibordan chiqarmaslik zarur.

Konni baholash ma'danlashuv tarqalishi xarakteri, izlash maqsadida burg'ilash ma'lumotlari, geofizik tadqiqotlar ma'lumotlarini inobatga olgan holda, chuqurlik bo'yicha amalga oshiriladi. Qidiruv chuqurligi konni o'zlashtirishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda o'zlashtirish uchun iqtisodiy asoslangan gorizontlar bilan cheklanadi.

17. Kumush zaxiralarini hisoblashning ishonchliligini ta'minlashda ustunli burg'ilash – burg'ilashning asosiy usuli hisoblanadi. Sharoshkali burg'ilash asosan kumush ma'danli minerallashuv zonalarini, kumush konsentratsiyasi yuqori bo'lgan uchastkalarni ajratish va ustunli burg'ilash yordamida ularni tasdiqlash uchun olib boriladi. Ustunli quduqlar kamida 76 mm diametr bilan burg'ilanadi.

Ustunli burg'ilash quduqlari bo'yicha ma'dan tanalari va qamrab oluvchi jinslar, ularning quvvati, ma'dan tanalarining ichki tuzilishi, ma'dan atrofidagi o'zgarishlarning tabiati, ma'daninng tabiiy turlari tarqalishi, ularning strukturasi va teksturasi hamda namunalash materialining ishonchliligi xususiyatlarini kerakli aniqlik bilan aniqlashtirishni ta'minlaydigan hajmda yaxshi saqlangan kernning

maksimal chiqishi olinishi lozim. Geologik qidiruv ishlari tajribasiga ko'ra har bir burg'ilash reysi bo'yicha kern chiqishi kamida 90 foizni tashkil qilishi zarur.

Kernning chiziqli chiqishi aniqlanishi haqiqiylikini vaznli yoki hajmli usul orqali tizimli ravishda nazorat qilish lozim.

Kumush miqdori va ma'dan intervallarining qalinligini aniqlash uchun kernning ishonchligi uning tanlanma ishqalanishi imkoniyatlarining tadqiqoti bilan tasdiqlanishi zarur. Buning uchun kernni namunalash natijalarini (ularning turli chiqishi bilan intervallari bo'yicha) nazorat tog' inshootlarini namunalash natijalari bilan ma'danning asosiy turlari bo'yicha taqqoslash lozim. Kernning kam chiqishida yoki namunalash natijalarini sezilarli buzadigan tanlanma jadal ishqalanishida qidiruvning boshqa texnik vositalarini qo'llash zarur.

Kiritilganda va tuzatish koeffitsiyenti namunalaridagi kumush miqdorining sezilarli buzilishida, bu qiymat kamida 20 ta nazorat tog' inshootlari bilan asoslanishi lozim.

Burg'ilashning informativligini oshirish uchun yo'naltirilgan kernni qo'llash, kernni batafsil hujjatlashtirish bilan uning holatini baholash, ratsional majmuasi qo'yilgan vazifaga qarab belgilanadigan quduqlardagi geofizik tadqiqotlar ma'lumotlarini ishlatish, konning aniq geologik-geofizik sharoitlari va geofizikaning zamonaviy usullarini qo'llash lozim. Ma'dan intervalini aniqlash va ularning parametrlarini aniqlash uchun samarali karotaj kompleksi baholash va qidirish bosqichida konda burg'ilangan barcha quduqlarda bajarilishi kerak.

Chuqurligi 100 metrdan ortiq vertikal va qiya barcha quduqlarda, jumladan yer osti quduqlarida quduqlarning azimut va zenit burchaklari kamida har 20 metrda nazorat o'lchovlari bilan aniqlanishi va tasdiqlanishi lozim. Mazkur o'lchovlar natijalarini geologik qirqimlar, gorizontli rejalar qurishda va ma'dan intervallari quvvatini hisoblashda inobatga olish zarur. Kon stvollarida tog' inshootlarining qirqilishlari mavjudligida, o'lchovlar natijalari marksheyderlik bog'lamalari ma'lumotlari bilan taqqoslanadi. Quduqlar uchun ularning ma'dan tanalari bilan kamida 30° burchak ostida kesishishini ta'minlash lozim.

Quduq chuqurligining nazorat o'lchovi kamida har 50 metr qazib o'tishda amalga oshiriladi.

Tik tushuvchi ma'danlar bilan katta burchakda kesishish uchun quduqning sun'iy egrilanishlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Burg'ilash orqali qidiruv samaradorligini oshirish uchun ko'p zaboyli quduqlarni va yer osti quduqlarining yelpig'ichisimon usulidan foydalanish lozim. Ma'dan bo'yicha burg'ilashni bitta diametrda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

18. Tog' inshootlari ma'dan jismlarining paydo bo'lish sharoitlari, morfologiyasi va ichki tuzilishi, ularning uzluksizligi, ma'danlarning moddiy tarkibi, konning tipik hududlarida ularda kumushning tarqalish tabiatini batafsil o'rganish hamda burg'ilash, geofizik tadqiqotlar olib borish, konlarni kuzatishni nazorat qilish va yirik tonnajli texnologik namunalarni tanlab olishning asosiy vositasidir.

Ma'dan tanalarining yaxlitligi va ma'danlashuvning o'zgaruvchanligi uning yo'nalish va og'ish azimutlari bo'yicha ishonchli deb topilgan uchastkalarda yetarli

darajada o'rganilishi zarur. O'rganish ishlari tomir tipidagi yupqa ma'dan tanalarida tog'-kon lahmlarini qazib o'tish bilan, shto'kverklar va minerallashgan zonalar tipidagi qalin ma'dan tanalarida esa yer usti va yer osti burg'ilash quduqlari to'rini zichlashtirish yordamida olib boriladi.

Tog' inshootlari eng avvalo detalizatsiya uchastkalarida hamda birinchi navbatda o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan kon uchastkalarida (gorizontlarida) qazib o'tiladi. Ular konning ekspluatatsiyasi davomida maksimal darajada foydalanishni hisobga olgan holda kovlab o'tilishi lozim.

19. Qidiruv tog' inshootlari va ular orasidagi masofa ma'dan tanalarining har bir strukturaviy-morfologik turi uchun ularning o'lchami, quvvati, ichki tuzilishi, yirikligi va kumush tarqalishining xarakterini inobatga olgan holda aniqlanishi lozim. Bunda boyitilgan uchastkalarining ehtimoliy ustunsimon joylashuvini inobatga olish kerak. Chamalash to'rining zichligi zaxiralarni hisoblash va ularni chegaralashning ishonchli tarzda bajarilishini ma'dan yotqiziqlarining o'lchamlari, shakli tajribasidan kelib chiqqan holda ta'minlab berishi shart.

Shu kondan yoki shunga o'xshash boshqa kondan olingan mukammal o'rganilgan uchastkalar haqidagi geologik va geofizik ma'lumotlar, hamda qazib chiqarish bilan bog'liq materiallarni sinchiklab tahlil qilish asosida har bir kon uchun quduqlarni burg'ilashga ko'proq e'tibor bergan holda qidirish inshootlarining eng maqbul geometriyasi va joylashuv zichligi asoslab beriladi. O'zbekistonning kumushli ma'dan konlari misolida qo'llanilgan tog'-kon inshootlarining joylashuv zichligi to'g'risidagi ma'lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

**O‘zbekistondagi kumush konlarini chamalash davrida qo‘llanilgan
chamalash inshootlari to‘rining zichligi to‘g‘risidagi
MA’LUMOTLAR**

Murakkablik guruhi	Konlarning sanoat turlari	Ma’dan tanalarining morfologiyasi	Inshootlar turi	Zaxiralar toifasi bo’yicha inshootlar orasidagi masofa, (metrda)						Konlarga misollar
				B		C ₁		C ₂		
				Yo’nalishi bo’yicha	Yotishi bo’yicha	Yo’nalishi boyicha	Yotishi bo’yicha	Yo’nalishi boyicha	Yotishi bo’yicha	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
2	Oltin-kumushli	Yirik minerallashtirilgan zonalar, tik va qiya yotuvchi yastanuvchi tomirlar, yirik o’lchamli murakkab tuzilishdagi yotqiziqlar	kanavalar	30-40	-	60-80	-	-	-	Visokovoltnoye
			shurflar	30-40	-	60-80	-	-	-	
			quduqlar	20-40	20	60-80	40-80	120	120	
			shtreklar	uzluksiz	40	uzluksiz	60-70	-	-	
			rassechkalar	20-30	-	40-60	-	-	-	
			tik tog’ inshootlari	80-120	uzluksiz	120	uzluksiz	-	-	
3	Oltin-kumushli	O’rtacha o’lchamli chiziqsimon, tarmoqlangan	kanavalar	-	-	40	-	-	-	Okjetpes
			shurflar	-	-	40	-	-	-	
			quduqlar	-	-	40	20-30	80-120	40-60	
			shtreklar	-	-	uzluksiz	20-30	-	-	
			rassechkalar	-	-	40	-	-	-	
			kvershlaglar	-	-	80-120	uzluksiz	-	-	

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
		O'rtacha o'lchamli yastanuvchi plito va linzasimon tanalar	kanavalar shurflar quduqlar shtreklar rassechkalar, kvershlaglar tik tog' inshoatlari	- - - - - -	- - - - - -	40 40 40 uzluksiz 30-40 80-120	- - 20 40 - uzluksiz	- - 80-120 - - -	- - 40-60 - - -	Kosmanachi
	Polimetallik kumushlik	Tomirlar va tomirli zonalar ustunli va linzasimon tanalar	kanavalar shurflar quduqlar shtreklar rassechkalar kvershlaglar tik tog' inshoatlari	- - - - - - -	- - - - - - -	20-40 20-40 40-60 uzluksiz 30 -	- - 20-30 60 - -	- - 80-120 - - -	- - 40-60 - - -	Lashkerek
4	Arsenid-kumushli	Tomirli va shtokverklik zonalar yupqa tomirlar katta uzunlikdagi	kanavalar shurflar quduqlar shtreklar kvershlaglar	- - - - -	- - - - -	- - - - -	- - - - -	80-120 80-120 40-80 uzluksiz 80-120	- - 40 - -	Oqtapa

20. Zaxiralarning ishonchliligini tasdiqlash uchun konning alohida uchastkalari batafsil qidirilishi lozim. Bu uchastkalarni konning boshqa qismiga qaraganda yana-da zich qidiruv to'ri bo'yicha o'rganish va namunalash kerak. Qidirilgan konlarda shu kabi uchastkalaridagi va 2-guruh konlarining gorizontlaridagi zaxiralar B toifasi bo'yicha o'rganilishi lozim. 3- va 4-guruhga oid o'rganilgan konlarining detalizatsiya uchastkalaridagi qidiruv to'rini odatda C_1 toifasi uchun qabul qilinganga qaraganda 2 karra zichlashtirish maqsadga muvofiqdir. C_2 toifasi zaxiralarning ishonchliligini tasdiqlash uchun C_1 toifasi uchun qabul qilingan qidiruv ishlari tarmog'i 2 karra bo'shashtiriladi.

Detalizatsiya uchastkalaridagi zaxiralarni hisoblashning interpolyatsiya usullaridan (geostatistika, teskari masofalari usuli) foydalanilganda, maqbul interpolyatsiya formulalarini asoslash uchun yetarli qidiruv kesishmalari zichligi ta'minlanishi lozim.

Detalizatsiya uchastkalari konning asosiy zaxirasini qamraydigan yotish sharoitlari va ma'dan tanalari shaklining o'ziga xosliklarini va ma'danning asosiy sifatini aks ettirishi lozim. Imkon bo'lsa, ular birinchi navbatda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan zaxiralar konturida joylanadi. Bunday uchastkalar geologik tuzilishning xususiyatlari, ma'danlarning sifati va kon-geologik sharoitlari jihatidan butun konga xos bo'lmagan vaziyatlarda, ushbu talabga javob beradigan uchastkalar ham batafsil o'rganilishi zarur. Hisoblangan va o'rganilgan konlar bo'yicha tafsilotlar maydonlarining soni va hajmi har bir alohida holatda geologik tuzilishining murakkabligiga qarab belgilanadi.

Vaqtı-vaqtı bilan mineralizatsiyaga ega konlar uchun zaxiralari ma'lum ma'dan jismlarining geometriyasiz, umumlashtirilgan konturda, ma'danli koeffitsiyentlardan foydalangan holda, balans ma'dan maydonlarining fazoviy holatini, tipik shakllari va o'lchamlarini aniqlash asosida hamda zaxiralarni taqsimlash, ma'dan intervallarni, ularning tanlab qazish ehtimoli baholanishi kerak.

Detallashtirish uchastkalarida olingan ma'lumotlar konning murakkablik guruhini asoslash, qidiruv tarmog'ining qabul qilingan geometriyasi va zichligi va tanlangan texnik qidiruv vositalarining uning geologik tuzilishi xususiyatlariga muvofiqligini tasdiqlash, namunalash natijalari va hisoblash parametrlarining ishonchliligini baholash uchun qolgan maydonda zaxiralarni hisoblashda olishda ishlatiladi. O'zlashtirilayotgan konlarda shu maqsadda operatsion qidiruv va o'zlashtirish natijalari qo'llaniladi.

21. Ma'dan tanalari yoki zonalarining barcha qidiruv ishlari va yer yuzasiga chiqishi ularni avtomatlashtirilgan qayta ishlash imkoniyati bilan standart shakllar asosida hujjatlashtirilishi kerak. Kern va tog' inshootlarini foto hujjatlashtirish ham amalga oshiriladi. Namunalash natijalari birlamchi hujjatlashtirishga taqdim qilinadi va geologik tavsifga muvofiq tekshiriladi.

Birlamchi hujjatlashtirishning to'liqligi va sifati, konning geologik xususiyatlariga muvofiqligi, tarkibiy elementlarning fazoviy holatini aniqlashning to'g'riligi, eskizlar, fotosuratlar va ularning tavsiflarini tuzish belgilangan tartibda vakolatli komissiyalarning natura bilan taqqoslash orqali muntazam ravishda nazorat qilinishi kerak. Shuningdek geologiyaga oid jamlama materiallarning

dastlabki hujjatlarga muvofiq kelishi, materialning yetarli darajada kattagina hajmiga doir belgilangan tartibda, nufuzli komissiyalar tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib borilishi kerak. Bundan tashqari, yig'ma geologik materiallarning geologik materiallar bilan muvofiqligini nazorat qilish zarur. Tekshiruv natijasi dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

22. Foydali qazilmaning sifatini o'rganish, ma'dan tanasini ko'nturlash va zaxiralarni hisoblab chiqish uchun qidiruv tog' inshootlarida ochilgan yoki tabiiy namoyonlarda aniqlangan barcha ma'dan intervallari namunalanishi lozim.

23. Namunalash usullarining tanlanishi konning o'ziga xos geologik xususiyatlari asosida amalga oshiriladi.

Konda qabul qilingan namunalash usuli natijalarning eng katta ishonchliligi yetarli mahsuldorlik va samaradorlik bilan ta'minlanishi kerak. Namunalashning bir nechta usullari qo'llanilsa, ular natijalarning aniqligi va ishonchliligiga qarab taqqoslanishi kerak.

24. Qidiruv uchastkalarini namunalash quyidagi majburiy shartlarga muvofiq amalga oshirilishi lozim:

namuna olish tarmog'i barqaror bo'lishi, uning zichligi konning o'rganilayotgan maydonlarining geologik xususiyatlari bilan belgilanadi va odatda konlar tajribasi, analoglari va yangi obyektlarda – tajribaviy ravishda o'rnatiladi. Namunalar konlar va ma'dan tanalarining (ma'dan zonalarining) o'zaro kesishmasida mineralizatsiyaning maksimal o'zgaruvchanligi yo'nalishi bo'yicha olinishi kerak. Ma'dan jismlari qidiruv ishlari (ayniqsa quduqlar) bilan maksimal o'zgaruvchanlik yo'nalishiga keskin burchak ostida kesishsa (agar Namunalashning ishonchliligiga shubha bo'lsa), nazorat yoki taqqoslash ishlari zaxiralarni hisoblashda ushbu kesishmalarni namunalash natijalaridan foydalanish imkoniyatini isbotlashi zarur.

namunalash sanoat konturida konditsiyalarga muvofiq kiritilgan bo'sh yoki sifatsiz qatlam quvvatini cheksiz miqdorda qamrovchi jinslarning kirishining ma'dan tanasi to'liq quvvat bilan, doimiy amalga oshirilishi lozim. Aniq geologik chegaralari bo'lmagan ma'dan organlari uchun – barcha qidiruv bo'limlarda, va ma'dan organlari uchun aniq geologik chegaralar bilan-siyrak ish tarmog'i bo'ylab. Ariqlarda, chuqurlarda, xandaqlarda, ma'danlarning ildizli chiqishidan tashqari, ularning nurash mahsulotlari ham namunalashdan o'tkazilishi kerak;

tog' inshootlarini (kanava, shtrek, rassechka va b.) namunalash seksiyalar bo'yicha 5x10 sm o'lchamli jo'yaklarda amalga oshirilishi lozim. Bu bir qator kumush konlaridagi tajriba ishlari bilan bir necha bor isbotlangan.

ma'dan tanalarining zalbandlaridagi ma'danlar va minerallashgan jinslarning tabiiy navlari alohida – seksiyalarda namunalashdan o'tkazilishi kerak. Har bir seksiyaning uzunligi (oddiy namuna) ma'dan tanasining ichki tuzilishi, material tarkibining o'zgaruvchanligi, teksturaviy-strukturaviy xususiyatlari, fizik-mexanik va boshqa xususiyatlar bo'yicha, quduqlarda esa – reys uzunligi bo'yicha aniqlanadi. Bu konditsiyalar bilan belgilangan ma'dan tanalarining minimal quvvatidan, shuningdek, ichki va sifatsiz qatlamlarning maksimal quvvatidan oshmasligi zarur.

Shu bilan birga, turli xil kern rentabelligi bilan tavsiflangan intervallar alohida namunalashdan o'tkaziladi. Tanlangan kern ishqalanishi mavjud bo'lganda, kern va maydalangan mahsulotlar namunalashdan o'tkaziladi, ular kern va maydalangan mahsulotlar namunalashdan o'tkaziladi. Kern bilan bir xil intervalda mustaqil namuna olinadi namuna alohida qayta ishlanadi va tahlil qilinadi.

Namuna olish ma'dan tanasini to'liq kesib o'tadigan kon inshootlarida inshootning ikkita devori bo'ylab, ma'dan tanasining yotishi bo'ylab o'tgan inshootlarda – zaboylarda amalga oshirilishi kerak. Izlash inshootlarida namunalar orasidagi masofa 1-4 metrdan oshmasligi lozim (namuna olish qadami eksperimental ma'lumotlar bilan tasdiqlanishi zarur). Ma'dan tanalari tik yotgan barcha gorizontal tog' inshootlaridagi barcha namunalar doimiy, oldindan belgilangan balandlikda joylashtiriladi. Qabul qilingan namunaviy parametrlar tajriba ishlari bilan asoslanishi kerak. Shuningdek, tog' inshooti uchun qabul qilingan namunalash usuli uchun ma'danli yoki jinsli minerallarning ranglanishi ehtimolini o'rganish ishlari amalga oshiriladi.

Ma'dan tanalarini to'liq quvvatini ochmaydigan shtrek, ko'tarilish, gezenk, quduqlardan namuna olish ma'lumotlaridan zaxiralarni hisoblashda foydalanilmaydi. Ma'dan tanalarining to'liq quvvatini ochgan yuqoriga ko'tarilgan namunalar ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati har bir holatda foydali komponent maydonlarini (ma'dan ustunlari) taqsimlash xususiyatidan kelib chiqib asoslanishi kerak.

25. Har bir qabul qilingan usul va ma'danlarning asosiy turlari bo'yicha, namuna olish sifati natijalarning to'g'riligi va ishonchligini baholagan holda tizimli ravishda nazorat qilinishi lozim. Namunalarning geologik tuzilish elementlariga nisbatan holatini va ma'dan tanalarining quvvati bo'yicha konturlanishining ishonchligiga, namunalarning qabul qilingan parametrlarining izchilligini va haqiqiy massaning jo'yakning qabul qilingan kesimi yoki haqiqiy diametri va kernning chiqishi asosida hisoblangan namunaga (ma'dan zichligi o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda, og'ishlar $\pm 10-20$ foizdan oshmasligi kerak) mosligini o'z vaqtida tekshirish zarur. Jo'yakdan namuna olishning aniqligini xuddi shunday kesimli birlashtirilgan jo'yaklardan namuna olish bilan, kerndan namuna olishda – kernning ikkinchi yarmidan namuna olish yo'li bilan nazorat qilinishi zarur.

